



MILLIY TAFAKKUR VA TIL BOYLIQI: ZAMONAVIY O'QUVCHILARNING LUG'AT KOMPETENSIYASI

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti 4-bosqich talabasi

Umarova Y.T.

Ilmiy rahbar: p.f.f.n. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15624046>

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy tafakkur va til boyligi, ayniqsa, zamonaviy o'quvchilarning lug'at kompetensiyasini rivojlantirish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada lug'at ko'nikmalarini oshirishda ta'lim metodlari, pedagogik texnikalar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatilib, o'zbek tilining milliy tafakkurga ta'siri ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va digital vositalarning roli haqida so'z boradi. Maqola o'quvchilarning tilni o'rganish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Milliy tafakkur, lug'at kompetensiyasi, o'quvchilar, o'zbek tili, ta'lim metodlari, interaktiv metodlar, pedagogik texnikalar, digital vositalar, til boyligi, zamonaviy texnologiyalar.

Har bir millatning o'zligiga eng yorqin guvohlik beruvchi vosita bu — uning tili hisoblanadi. Til orqali inson dunyoni anglaydi, uni ifodalaydi, munosabat bildiradi va o'z ongini namoyon etadi. Ayniqsa, o'zbek tilining boy va rang-barang leksik boyligi xalq tafakkuri, tarixi, ma'naviy olami va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan. Milliy tafakkur esa o'sha leksik boylik orqali shakllanadi va takomillashadi. Shu bois tilni o'rgatish jarayoni faqat grammatik bilimlarni o'zlashtirish emas, balki milliy tafakkurni shakllantirish vositasi sifatida qaralishi zarur.

O'zbek tilining lug'aviy imkoniyatlari nihoyatda keng. Uning tarkibida qadimiy turkiy so'zlar, arabcha-forscha madaniy qatlamlar, zamonaviy atamalar uyg'unlashgan. Bu esa o'quvchining leksik kompetensiyasini shakllantirishda ayni ma'naviy boylikka asoslangan holda ishlashni talab etadi. Lug'at boyligini shakllantirish esa o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi — u doimiy metodik ta'sir, kontekstual yondashuv, psixolingvistik asos va madaniy integratsiyani talab etadi.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan Prezident tomonidan ilgari surilgan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash" g'oyasi, ona tilini chuqur o'rgatish zaruratini yanada





kuchaytirdi. “Yangi O‘zbekiston – yangi til maktabi” g‘oyasi asosida ona tili fanini innovatsion va zamonaviy usullarda o‘rgatishga katta urg‘u berilmoqda.

Shu jihatdan qaralganda, o‘quvchilarda lug‘aviy kompetensiyani shakllantirish nafaqat nutqiy savodxonlik, balki shaxsiy ong, fikrlash doirasi, milliylikni anglash, madaniyatga hurmat, ijodiy fikrlash singari ko‘nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bugungi o‘quvchi ko‘proq texnologik vositalar orqali ma‘lumot oladi, lekin mazmunan boy so‘zlardan foydalana olmayapti. Bu esa uning fikr ifodalash doirasini toraytiradi, milliy obraz va qadriyatlarni tushinishda sustlikka sabab bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot ishlari Andijon viloyatidagi 8-umumta‘lim maktabining 5-, 8- va 9-sinflarida o‘tkazildi. Umumiy hisobda 90 nafar o‘quvchi tajribaga jalb qilindi. Tanlovda qatnashgan sinflar bo‘yicha o‘quvchilarning bilim darajasi, lingvistik tayyorgarligi, ijodiy salohiyati va so‘z boyligi bo‘yicha oldindan monitoring o‘tkazildi. Tajriba ishlari “aksiologik va lingvodidaktik yondashuv” asosida tashkil qilindi.

Tadqiqot bosqichlari:

1-bosqich. Diagnostik tahlil

Bu bosqichda quyidagi vositalardan foydalanildi:

So‘z boyligini aniqlash testi. O‘quvchilarga 50 ta keng tarqalgan so‘zlar ro‘yxati berilib, ularning ma‘nosini tushuntirish, kontekstda ishlatish, sinonim yoki antonimini topish topshiriqlari berildi.

Mini-insho yozish. “Men sevgan joy”, “Yaxshi inson qanday bo‘ladi?” kabi mavzularda 150–200 so‘zli yozma ishlar olingan.

So‘rovnoma. O‘quvchilarga quyidagi savollar bilan so‘rovnoma o‘tkazildi:

Har kuni necha ta yangi so‘z o‘rganasiz?

So‘z daftarini yuritasizmi?

Qaysi manbalardan yangi so‘zlarni o‘rganasiz?


“Ko‘ngil”, “qadr”, “hamiyat” kabi so‘zlarning ma‘nosini tushunasizmi?

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning aksariyatida faol lug‘at juda tor, stilistik tafovutni anglash darajasi past va milliy madaniy birliklarga qiziqish yetarli emas.

2-bosqich. Tajriba-darslar tashkil etish

Bu bosqichda 4 hafta davomida haftasiga 3 marotaba maxsus mashg‘ulotlar tashkil etildi. Har bir darsda quyidagi metodlar uyg‘unlashtirildi:

a) Kontekstual yondashuv:





O'quvchilarga real hayotiy matnlar (hikoya, maqola, dialog) berilib, matndagi yangi so'zlar ajratildi. So'ng u so'zlar bilan gaplar tuzildi, sinonim, antonimlari topildi, qo'llanish usullari tahlil qilindi.

Misol: "G'urur" so'zi — kontekst: "Millat g'ururi har bir yurttdoshda bo'lishi kerak."

Topshiriq: "G'urur" so'zining antonimini toping. So'z qatnashgan 3 ta gap tuzing. Ushbu so'z bilan bog'liq maqol yoki ibora yozing.

b) Klaster usuli:

O'quvchilarga asosiy so'z berilib, uning atrofida mazmunan bog'liq so'zlar (sabab, natija, emotsiya, harakat, sifat)dan iborat "so'z guldastasi" tuzildi.

Misol: "Mehr" – (ona, yurak, nur, shafqat, sog'inch, bag'rikenglik, duo, saxiylik)

c) O'yinli yondashuv:

"Kim ko'p sinonim topadi?", "So'zdan ibora yasang", "So'z zanjiri" kabi o'yinlar orqali o'quvchilar faol va qiziqarli tarzda yangi so'zlarni o'zlashtirdilar.

d) Ijodiy topshiriqlar:

Yangi o'rganilgan 5–6 ta so'z asosida 5 gap tuzish, qisqa hikoya yozish, "so'z bilan his qilish" mashqi (his-tuyg'u bilan bog'lash), milliy qadriyatlar aks etgan holatga moslashtirish.

e) Vizual-assotsiatsion yondashuv:

Rasmlar, grafikalar, obrazlar asosida so'z o'rganish. Bu usul ayniqsa yosh sinflarda samarali bo'ldi.

Misol: "Saxovat" so'ziga — yelkasi ochiq ota, bag'rini ochgan ona, ro'za paytidagi dasturxon rasmlari ko'rsatilib, tushunchaning ichki mohiyati ochib berildi.

3-bosqich. Natijalarni qayta tahlil qilish

Tajriba yakunida dastlabki testlar takroran o'tkazildi, yozma ishlardagi leksik o'zgarishlar solishtirildi, og'zaki nutqdagi boyishlar audioyozuvlar orqali qayta eshitildi.

Natijalar

Tajriba ishlari natijalariga ko'ra, lug'at bilan tizimli ishlash o'quvchilarda so'z boyligini oshiribgina qolmay, balki ularning fikr ifodasi, stilistik sezuvchanligi, ijodiy yondashuvi va milliylikni idrok etish qobiliyatini ham rivojlantirganini ko'rsatdi. Quyida o'tkazilgan mashg'ulotlarning asosiy natijalari statistik va sifat ko'rsatkichlari asosida taqdim etiladi.

1. Faol lug'at boyligidagi o'sish





O'quvchilarning dars boshidagi faol lug'at hajmi o'rtacha 320 ta so'zni tashkil qilgan bo'lsa, mashg'ulotlar yakunida bu ko'rsatkich 460 taga yetdi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilarida 41%, 8-sinfda 35% va 9-sinfda 28% miqdorida o'sish kuzatildi.

Izoh: Yosh kichik bo'lishi bilan kontekst asosida o'rganilgan so'zlar ongda kuchliroq joylashgan. Bu esa assotsiatsion yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Stilistik sezuvchanlik va ifoda aniqligi

Yozma nutq namunalari (mini-insholar) tahlil qilindi. Ilgari quyidagi xatoliklar aniqlangan edi, har bir gapda bir xil so'zlar takrorlangan, sinonimlardan foydalanilmagan, gaplar sodda va iborasiz bo'lgan, ma'nodoshlik va emosional-yuklama sezilmagan.

Tajriba yakunida yozilgan yangi insholarda takrorlanuvchi so'zlar 38%dan 18%ga kamaydi, har bir matnda o'rtacha 3–4 ta yangi sinonim ishlatildi, badiiy ifodali vositalar soni 2 barobarga oshdi, maqol, ibora, milliy terminlar bilan boyitilgan matnlar paydo bo'ldi.

Misol:

Oldin: "Men maktabga boraman. Maktab men uchun muhim. Maktabda do'stlarim bor."

Keyin: "Maktab – bu mening bilim uyim, eng yaxshi do'stlarim va kelajak orzularim u yerda. Har tongda uni sog'inish yuragimda g'urur uyg'otadi."

3. Ma'naviy-leksik birliklarga munosabat

O'quvchilarga "ko'ngil", "hamiyat", "or-nomus", "burch", "sabr" kabi so'zlarning ma'nosini yozish va u bilan gap tuzish topshirig'i berildi. Dastlab bu tushunchalarni to'liq anglay olmaganlar soni 70%ni tashkil qilgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 31%ga tushdi.

Shundan:


Frazeologik iboralardan foydalanish 22%dan 63%ga oshdi;

Milliy madaniyatga oid so'zlar ishlatish 40%dan 69%ga yetdi;

Matnda stilistik usullardan (metafora, epitet, tashbeh) foydalanish 3 barobarga oshdi.

4. Interaktiv metodlar natijadorligi

Har bir sinfda ishlatilgan metodlarning ta'sirini baholash uchun ball tizimi joriy qilindi. Quyidagi jadvalda o'quvchilar fikri va o'qituvchi kuzatuv asosida har bir metod samaradorligi ifodalangan:





5. Qo'shimcha natijalar

O'quvchilar o'zaro muloqotda yangi so'zlardan foydalanishga harakat qilishgan, ba'zi o'quvchilar "So'z kundaligi" yurita boshlagan, ijodiy topshiriqlarda o'ziga xos nutq uslublari sezila boshlagan, tahlilga asoslangan fikrlar ko'proq ifodalangan ("Chunki...", "Sababi...", "Aks holda..." iboralarini orqali), multimediali materiallardan foydalanganda so'z yodlash sur'ati 1,5 barobar oshgan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, lug'at bilan tizimli va maqsadli ishlash, ayniqsa, kontekstual, assotsiatsion va interfaol yondashuvlar asosida olib borilsa, o'quvchilarning leksik kompetensiyasi sezilarli darajada rivojlanadi. Biroq bu o'zgarishlar shunchaki so'z yodlash orqali emas, balki o'quvchi tafakkurining chuqur qatlamlariga ta'sir etuvchi yondashuvlar vositasida amalga oshdi.

Olimlar fikricha, til tafakkurning tashqi ko'rinishi bo'lsa, lug'at – tafakkur bo'ylarining sarchashmasidir (Sapir, Vygotsky, Leontiev). Shuning uchun o'quvchilarning lug'aviy boyligini oshirish degani – ularning fikrlash doirasini kengaytirish, dunyoqarashini chuqurlashtirish, tushunish va ifodalash imkoniyatini boyitishdir. Mazkur tajribada aynan ushbu narsa – fikrni erkin, badiiy, ta'sirchan ifodalash qobiliyati aniq sezildi.

Tilning o'zi milliy tafakkurning vositasi sifatida emas, balki uning asosiy mazmuniy tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga "or", "nomus", "vijdon", "sabr", "ozodlik" kabi tushunchalar bilan ishlash topshiriqlari berilganda, ular bu so'zlarni grammatik ma'noda tushungan bo'lsada, mazmuniy jihatdan tushunishda dastlab qiyinchilikka uchragan. Ammo kontekst asosidagi tahlillar, maqollarni sharhlash, obrazlar yaratish orqali bu tushunchalar ularning shuurida mustahkamlandi.

Zamonaviy o'quvchilar e'tiborini ushlash, ularni chuqur ongli ishtirokga jalb qilish uchun klassik metodlar bilan bir qatorda raqamli vositalardan ham foydalanish talab etiladi. Tajriba davomida videomatnlar (YouTube, TikTok), chatbot muloqotlari (AI-assistentlar), animatsion darslar asosida lug'at boyligini oshirish sinovdan o'tkazildi. Bu vositalar orqali o'quvchi so'zni:

Eshitdi (audio yodlash), ko'rdi (vizual bog'liqlik), qo'lladi (dialog, matn, rolli o'yin), tahlil qildi (emotsional-assotsiativ tahlil).

Bu usullar o'quvchilarda ko'pkanalli eslab qolish mexanizmini faollashtirdi.

Amaldagi o'quv dasturlarida ko'plab leksik birliklar yoritilmagan, lug'at ustida ishlashga yetarlicha metodik asoslar berilmagan. Ayniqsa, maqol va





iboralar, milliy birliklar izohsiz keltiriladi yoki matnga bevosita bog'lanmaydi. Bu esa o'quvchining o'zlashtirish qobiliyatiga to'siq bo'ladi.

Shu sababdan, yangi metodik yondashuvlar – faol kontekstual, analitik, ijodiy-tahliliy mashqlar bilan boyitilgan lug'aviy ta'lim zarurligini ko'rsatmoqda. Har bir yangi so'z – tushuncha, tajriba, madaniyat, his-tuyg'u, obraz bilan uyg'un holda berilishi kerak.

Xulosa

Ushbu maqolada milliy tafakkur va til boyligi, ayniqsa zamonaviy o'quvchilarning lug'at kompetensiyasi muammosi chuqur tahlil qilindi. O'quvchilarning lug'at ko'nikmalarini rivojlantirish, til o'rganish jarayonida nafaqat kommunikatsion ko'nikmalarni shakllantirish, balki o'z milliy tafakkurimizni saqlab qolish, uni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Maqolada zamonaviy o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, ularning til va madaniyatga nisbatan qiziqishini oshirishda o'qituvchilarning o'rni, metodik yondashuvlar va pedagogik texnikalar haqida keng ko'lamda ma'lumotlar taqdim etildi.

Yana bir muhim jihat, lug'atni o'rganish va ishlatish jarayonida o'quvchilarning tilga nisbatan qiziqishini oshirishdir. O'qituvchilar, o'z navbatida, darslarni qiziqarli va ijodiy tashkil etish orqali o'quvchilarning lug'atga bo'lgan qiziqishini oshirishlari mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga mos keladigan, interaktiv va amaliy metodlar yordamida lug'at ko'nikmalarini rivojlantirishda samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning lug'at ko'nikmalarini rivojlantirishda metodik yondashuvlar, pedagogik vositalar, zamonaviy texnologiyalar va o'zbek tilining boyligini saqlab qolishning o'rni muhimdir. Bu jarayonda o'qituvchilar, o'z navbatida, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan innovatsion metodlarni qo'llashlari zarur. Maqola yakunida, zamonaviy o'quvchilarning lug'at kompetensiyasini oshirish uchun yanada samarali va keng qamrovli metodik tizimlarni yaratish va amaliyotga joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Bu nafaqat o'quvchilarning til boyligini rivojlantirish, balki ularning milliy tafakkurini shakllantirish va kelajakda o'z ona tilida to'g'ri va aniq fikr bildirish imkoniyatlarini yaratish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov, S. O'zbek tili va uning rivojlanishi. Toshkent: "O'qituvchi", 2010.
2. Raxmatov, N. Milliy tafakkur va tilning o'zaro aloqasi. Toshkent: "Fan", 2015.





3. Davronov, A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va metodlar. Toshkent: "Ma'naviyat", 2018.
4. Mirzaeva, M. Zamonaviy ta'limda interaktiv metodlarning roli. Toshkent: "Ilm-fan", 2020
5. Abdullayev, B. O'zbek tilidagi lug'at boyligini oshirish usullari. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

